

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TIZIMIDA
O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH
ISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

Toirova Yayra Shavkatovna

*Buxoro viloyati Romitan tumani MMTB ga qarashli 3-umumta'lim maktabi
psixologi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'naltirishdagi muammolar amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha fikr yuritamiz.*

Kalit so'zlar: *To'g'ri kasb tanlash, o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, kasblar, maktab, o'quvchi, psixolog*

Kasbga yo'naltirish maqsadi- shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o'spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi. Ulardan biri testni to'ldirishni o'z ichiga olgan «Harrisonn assessment» usuli bo'lib, uning natijalari talabaning rivojlangan fazilatlarini, shuningdek o'sish zonalarini ochib beradi. Ushbu amaliyot shuningdek, farzandingizga ushbu texnikaning natijalarini tushunishda yordam beradigan va rivojlanish rejasini tuzishda yordam beradigan psixolog konsultant bilan suhbatni o'z ichiga oladi

Kasbga yo'naltirish usuli nima uchun kerak? Albatta, ba'zi ota-onalar farzandlariga qaysi universitetga o'qishga kirishni, qaysi mutaxassislikda ta'lim olishni o'zi hal qilishadi, lekin ota-onaning bunday qarori har doim ham amalga oshmasligi mumkin, chunki kelajak kasbi bo'yicha hali aniq bir qarorga kelmagan

bola bu mutaxassislikka umuman qiziqmasligini tushunib, o'qishni davom ettirishni istamasligi mumkin. Kasbga yo'naltirish usulidan foydalanish esa bunday vaziyat duchor bo'lmaslikga hamda oilaviy byudjetni tejashga va o'qitishga sarflanadigan vaqtni tejashga yordam beradi. Bolaning shaxsiy fazilatlari va qobiliyatlariga asoslangan «Harrison assessment» kasbga yo'naltirish usuli sizning farzandingiz uchun eng maqbul kasblar ro'yxatini taklif etadi.

Hozirgi kunda yosh avlodlarni to'g'ri kasbga yo'naltirish davlatimiz oldidagi eng katta masalalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun esa yosh bolalarni ota-onalari hamda o'qituvchilari va psixologlarni faoliyati katta ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz „Yigitga qirq hunar ham oz“ deganlaridek dunyoda kasb ko'rnishlari juda ko'p, faqat ulardan foydalana bilshimiz lozimdir. Qaysi kasbni tanlasakda jabr ko'rmaymiz, kasbning yamoni yoq uni tanlash har bir insonning istagidan, iqdidoridan kelib chiqib tanlaydi. Maktab o'quvchilarni kasbga yo'naltirish uchun yoshligidan qiziqtirib borishi lozim bo'ladi. Masalan ko'proq kitob o'qishi bilan ham kasbga bo'lgan qizig'ishini o'shirishi mumkin bo'ladi. Ma'lumki mehnat va kasb-hunorga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, hohish, istak barcha o'quv fanlari tarkibida shakillantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarni mehnatga kasbga bo'lgan qarashni o'zgartirishda, o'stirishda, rivojlantirishda mehnat o'qituvchilarning ahamiyati katta. Buning uchun:

- turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish

- kasblarning demokrati xususiyatlari haqida ma'lumot berish

- o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish testlar tuzish

- o'quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish

- o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga

yo'llash bo'yicha suhbatlar o'tkazish

- o'quvchilarni noto'g'ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish.

- o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'llash maqsadida, ularning shaxsiyati, muhnat turi va kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi- psixologining ham olib borayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarining oz ahamiyati bor. Chunki o'qituvchilar ham kasb tanlashda aniq bir fikriga kela olmaydi. Buning o'ziga yarasha turli xil sabablari bor. Psixologik testlar orqali bu masalani yechishlari mumkin. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilimga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa, yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi.

Kasbiy shakllanish, jarayonining dastlabki va ayni damda o'rta muhim bosqichi bo'lajak kasbini tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrini o'z ichiga o'ladi. Shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas. U ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Bu jarayonda esa shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlanishlari kerak bo'ladi. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz. Shu soniyadan boshlab Davlatimiz ham yosh avlodlarni kasbiy ko'nikmalarga yo'naltirish va ularni muayyan ishlarga tayyorlashga qaratilgan bir qancha dastur va tashabbuslar mavjud. Masalan:

O'quvchilarga kasb-hunar ta'lim muassasalarida muayyan kasb-hunar ko'nikmalarini o'rganish imkonini beruvchi „Kasbga yo'naltirish tizimi“ joriy etildi. Hukumatimiz tomonidan „Kasb-hunar maktablari“ ham tashkil etilgan, ularda o'quvchilar muayyan kasbiy ko'nikmalarni o'rganadilar. Shunday ekan, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish har bir yosh avlodni o'ziga, qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, yosh avlodni kasb tanlashga bo'lgan tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakillanib qolmaydi. Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish faqat birgina mehnat ta'limi o'qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamosining, mahalla, otaonalar jamoatchilikning birgalikdagi ishidir.

Maktabda fan o'qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog'lab o'tishsa, maktab psixologi va rahbariyati o'quvchilarining individual qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim tarbiya ishlarini olib borishsagina o'quvchilarga kasb tanlashlarida ko'mak bergan bo'lishadi.

Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ish o'quvchilarni kasb korini ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarishga ko'p jihatdan yordam beradi. Kasbning o'ziga to'xtalsak bu- kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti, turi, muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor, murakkab sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor ular; vrachlik kasbida xirurg, oftalmolog, dermatolog va boshqalar.

Kasb odatda shaxsning tirikchilik manbai desak mubolag'a bo'lmaydi. Erkaklar va ayollar uchun ham alohida kasb ko'rnishlari bor. Masalan kasblar soni juda ko'p xaydovchi, shifokor, o'qituvchi, usta, tikuvchi, to'qimachilik, tadbirkor, stomatolog, haykaltarosh, muhandis, huquqshunos, marketolog, seleksioner, arxeolog, oshpaz, rassom, ayollar va erkaklar sartaroshi, mutaxassis, psixolog, tilshunos, dizayner va boshqalar. Bulardan birini tanlash har bir insonning qobiliyatiga bog'liq bo'ladi, shunday ekan ertami, kechmi har qanday insonni kelajakda qaysi kasbni egallasam ekan?, degan savol qiynaydi. Bu masala nafaqat maktab o'quvchilari va endi oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlar uchun ham balki

malum sabablarga ko'ra nufuzliroq, ko'proq haq to'lanadigan ish topishni istagan katta yoshdagi kishilar uchun ham dolzarb muammoga aylanib bo'ldi. Bunga esa sabab, zamona sayil shiddat bilan o'zgarayotgan davrda yashayapmiz. Bugun bizni eng so'nggi texnologiya ham hayratga so'lishi qiyin. Nima uchun deysizmi? bunga hech ikkilanmasdan shunday javob berishimiz mumkin, olamda har qanday o'zagarish bo'lyaptiki!, hayron qolishga ulgurolmaymiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlashi orqali o'z oilasiga, jamiyatga eng katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

G'oziyev.E, Mamedov . K, kasb psixologiyasi -T; O'zMU 2003. 156-b

1. Aliev . A, O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. Toshkent . O'qituvchi 2016
2. Internet.uz